

**XORIJIY TIL TA'LIMIDA KOMUNIKATIV
KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING LINGVODIDAKTIK
TAMOYILLARI**

Nurjamol Normatova

Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, PhD

E-mail: normatova.nurjamol@mail.ru

Orcid-ID: 0000-0002-7148-9451

+998-94-460-00-24

Annotatsiya. Nutq ko'nikma va malakalarini rivojlantirish uzoq va murakkab jarayon bo'lib, uni shakllantirish bosqichlari bilan uzviy bog'liqdir. Ya'ni ushbu ikki jarayon ketma-ket emas, sinxron tartibda amalga oshirilishi zarur. Ko'nikmadagi asosiy ikki xususiyat – o'zgaruvchanlik va chidamlilik nutq ko'nikmalarini va malakalarini uzviy tarzda olib borishga imkon beradi. Yuqori darajada rivojlantirilgan nutq ko'nikmalaridan ongli ravishda foydalanmaymiz. Talabalarning avtomatizm darajasida rivojlantirilmagan nutq ko'nikmalari, jonli og'zaki muloqot jarayonida muayyan kommunikativ muammolarini keltirib chiqaradi. Shunda aqliy, diskursiv, mantiqiy operatsiyalarning psixologik asosiga tayangan lisoniy ko'nikmalar ishga tushadi.

Kalit so'zlar: diskurs, lingvo-didaktik omillar, motivatsiya, sohaga oid xorijiy til, kommunikativ kompetensiya.

Xorijiy til ta'limida ushbu turdagi lisoniy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish muayyan lingvistik bilimlarga asoslangan turli diskursiv til operatsiyalarini bajarish jarayoniga tayanadi. Og'zaki nutq ko'nikmalarining rivojlanganlik darajasini quyidagi ichki va tashqi mezonlar asosida aniqlash mumkin:

ilmiy –amaliy anjuman

a) tashqi mezonlar: nutqning sofligi (og‘zaki bayonotni tuzishda lisoniy va nutqiy ko‘nikmalarning mukammalligi va sifati (xatosizligi)); temp (alohida operatsiyalarni bajarish tezligi, o‘z ona tili bilan taqqoslaganda xorijiy tildagi so‘zlarni o‘z o‘rnida ishlatish va qo‘llashda uzviylik kontekst mazmunidan kelib chiqib tartib bilan, foydalana olish);

b) ichki mezonlar: faoliyatni bajarish shaklida ongning yo‘naltirilganligi; jarayonda zo‘riqmaslik va oraliq talaffuz operatsiyalarini bajarishda musbatlik.

Og‘zaki nutq ko‘nikmalarining mukammal rivojlanish darajasi (uzoq muddatli xotiradagi xorijiy so‘zlardan foydalanish ko‘nikmasi; so‘zlarni tanlay olish, ya‘ni xorijiy sinonimiyani ishlata olish ko‘nikmasi; operativ xotirada muayyan xajmdagi xorijiy til birliklarini saqlab tura olish qobiliyati; berilgan savolga to‘g‘ri reaksiya ko‘rsatish ko‘nikmasi kabi) talabalar og‘zaki bayonotida yuzaga keluvchi xatolar sonining kamligi va nutqning yuqori tempda bo‘lishini taqozo etadi.

Ma‘lumki, nutq so‘zlanayotgan vaqtda tinglovchida qisqa muddatli (operativ) va uzoq muddatli xotira; mantiqiy fikrlash hamda voqealar rivojini oldindan ko‘ra bilish kabi bir necha psixologik mexanizmlarga asoslangan ichki qobiliyatlar bo‘lishi talab etiladi. Eshitish jarayonida qisqa muddatli xotira aytilayotgan gapning shakliy ma‘nosini saqlashga xizmat qiladi va 3-4 so‘zdan oq gapning mazmunini anglab olish (taxmin qilish mexanizmi) imkoniyati tug‘iladi.

Gap tugagan zahoti eshitilgan ma‘lumotlarni ongda nutqiy shakldan insonning aqliy shakli (tasvir, belgi, tushunchalar)ga o‘tkazish boshlanadi. Aynan mana shu sababga ko‘ra tinglab tushunishda ko‘rgazmali audio-vizual vositalarning ahamiyati muhimdir. Bunda verbal va noverbal (qo‘l va tana harakatlari) ham mazmunni tushunishda hal qiluvchi vazifa bajaradi. Ushbu omillarga tayangan holda o‘z tadqiqot ishimizda audial va audio-vizual

materiallarga nafaqat tinglab tushunish, balki og‘zaki nutqni kompleks rivojlantirishda tayanch vosita sifatida o‘rin beramiz.

Gapirish negizida murakkab integral ko‘nikmalar ya’ni produktiv (talaffuz) yoki ifoda etish (ritmik-intonatsion) va leksik-grammatik ko‘nikmalar yotadi. Gapirish jarayoniga fikrlash, evristiklik va situativlik xosdir va uning asosi fikrlarning tashqi nutqda tovushlar yordamida ifoda etilishidir. Xorijiy til o‘qitish metodikasida ushbu qarashlarga nisbatan leksik-grammatik ko‘nikmalarning birgalikda ko‘rib chiqilishi fikrimizni isbotlab beradi. Leksik-grammatik ko‘nikmalarning leksik komponenti so‘z birikmasi va gap darajasidan qisman avtomatlashgan leksik-semantik bog‘liqlik shaklida; grammatik komponent esa so‘z birikmalari va aynan gap tarkibidagi so‘zlarning sintaktik bog‘lanishi ifodasi va leksemalarning morfologik tuzilishi jarayonidagi avtomatlashganlik shaklida namoyon bo‘ladi.

Gapirish va tinglab tushunish ko‘nikmalarining psixolingvistik qiyosiy xarakteristikasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ular ichki nutqqa tayangan hamda prognozlash mexanizmiga asoslanadigan murakkab fikrlash faoliyati sifatida xarakterlanadi. Asosiy farq sifatida ularning tugash nuqtasini ko‘rsatish mumkin – gapirish jarayonida ma’lumotlar shifrlansa, tinglab tushunish jarayonida esa u qayta ochiladi. Uzatilayotgan xabarni kodlash jarayoni tilning fonetik tizimidan yaxshi foydalana olishni talab etadi. Shu sababdan, gapirish ko‘nikmasidan ajratilgan holda tinglab tushunishni rivojlantirish, eshitish qobiliyatining noto‘g‘ri yo‘naltirilishiga va akustik artikulyatsion ko‘nikmalar rivojlanish jarayoni murakkablashishiga olib keladi. Talabada tinglab tushunish ko‘nikmasi qanchalik yaxshi egallangan bo‘lsa, gapirish ham shuncha tezlik bilan rivojlanadi, aks holda teskarisi bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedova L. T. Pedagogicheskie innovatsii kak uslovie razvitiya professionalnoy podgotovki studentov // Obrazovanie cherez vsyu jizn: nepreryvnoe obrazovanie v interesax ustoychivogo razvitiya: – T., 2010. – 8 b.
2. Bensaci, H. S. An introduction to English for Specific Purposes (ESP). – Algerian University, 2016. –301 r.
3. **NORMATOVNA N. N., OBIDOVNA A. F. THE ROLE OF TEACHER-MADE RUBRICS ON EFL SPEAKING ASSESSMENT: PERSPECTIVES ON STUDENTS’DECISION-MAKING, PROFESSIONAL DEVELOPMENT, AND WORKLOAD //THE AMERICAN JOURNAL OF INTERDISCIPLINARY INNOVATIONS RESEARCH Учредители: The USA Journals. – 2025. – Т. 7. – №. 1. – С. 14-18.**
4. Snow, M.A., & Brinton, D.M. The Content-Based Classroom: New perspectives on integrating language and content (2nd ed.). – MI: University of Michigan Press, 2017. – 160 r.
5. Vygotsky, L. Mind in society. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2001. – 211 p.